O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/2026.31.01.Ped.45.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI

RAJAPOVA GULRUX BAXODIROVNA

FILOLOG TALABALARGA INGLIZ MAQOLLARINI BADIIY ASARLAR ASOSIDA O‘RGATISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)

PEDAGOGIKA fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

UO‘K: 378.091.3:811.111:821

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по педагогическим наукам

Contents of Dissertation Abstract of Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences

Rajapova Gulrux Baxodirovna
Filolog talabalarga ingliz maqollarini badiiy asarlar asosida o‘rgatish metodikasini takomillashtirish…….....3

Раджапова Гулрух Баходировна
Совершенствование методики преподавания английских пословиц студентам-филологам на материале художественных произведений….....27

Rajapova Gulrukh Bakhodirovna
Improving the Methodology of Teaching English Proverbs to Philology Students Based on Works of Literature…….....53

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of publications.....58

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/2026.31.01.Ped.45.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI

RAJAPOVA GULRUX BAXODIROVNA

FILOLOG TALABALARGA INGLIZ MAQOLLARINI BADIIY ASARLAR ASOSIDA O‘RGATISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)

PEDAGOGIKA fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PhD/Ped9369-raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.uzswlu.uz) hamda “ZiyoNet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Isakulova Nilufar Janikulovna** pedagogika fanlari doktori, professor
	Jumanazarov Umidjon Umirzakovich pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Rasmiy opponentlar:	
	Babaniyazova Nargiza Polatovna pedagogika fanlari doktori (DSc)
Yetakchi tashkilot:	**Nizomiy Ganjaviy nomidagi O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2026.31.01.Ped.45.02 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil “____” _____ soat _____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100138, Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Kichik halqa yo‘li ko‘chasi, 21 A-uy. Tel.: (99871) 230-12-91, faks: (99871) 230-12-92, e-mail: uzswlu_info@mail.ru).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100138, Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Kichik halqa yo‘li ko‘chasi, 21 A-uy. Tel.: (99871) 230-12-91, faks: (99871)230-12-92).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “____” _____ kuni tarqatildi.

(2026-yil “____” _____dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

I.M. Tuxtasinov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, ped.f.d. (DSc), professor

F.G. Zakirova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash kotibi, ped.f.f.d. (PhD), dotsent

A.B. Raxmonov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi, ped.f.d. (DSc), professor

.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda kechayotgan globallashuv jarayonlari, madaniyatlararo muloqotning kengayishi hamda xorijiy tillarni o‘rganishga bo‘lgan ehtiyojning ortib borishi filolog talabalarni zamonaviy metodlar asosida tayyorlash zaruratini yanada kuchaytirmoqda. Xususan, ingliz maqollari tilning milliy-madaniy qatlamini aks ettiruvchi muhim pragmatik va lingvomadaniy birlik sifatida talabalarning nutqiy kompetentligini rivojlantirishda alohida o‘rin tutadi. Biroq amaliyotda maqollar ko‘pincha kontekstdan uzilgan holda, izolyatsiyalangan tarzda o‘rgatilishi ularning mazmuniy chuqurligini anglash va kommunikativ vaziyatda qo‘llash imkoniyatlarini cheklaydi. Shu nuqtayi nazardan, ingliz maqollarini badiiy asarlar asosida o‘qitish metodikasini takomillashtirish talabalarda nafaqat leksik va grammatik bilimlarni, balki kontekstual tafakkur, interpretatsiya va madaniyatlararo tushunish kompetentligini integrativ rivojlantirishga xizmat qiladi. Mazkur yondashuv autentik matnlar orqali maqollarning semantik, pragmatik va estetik xususiyatlarini ochib berib, ularni nutq jarayonida samarali qo‘llash imkonini kengaytiradi.

Dunyoda oliy ta’lim tizimida chet tillarni o‘qitish metodikasini modernizatsiyalash, xususan, bo‘lajak filologlarning paremiologik va lingvomadaniy kompetensiyasini rivojlantirish ilmiy amaliyotida keng ko‘lamli ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Mazkur jarayonda talabalarda frazeologik birliklar va maqollarning semantik-funksional mohiyatini badiiy matn vositasida anglash ko‘nikmalarini shakllantirish muhim pedagogik omil sifatida baholanmoqda. Ushbu yo‘nalishda ingliz tili maqollarini badiiy asarlar kontekstida o‘rganishning innovatsion texnologiyalarini yaratish hamda talabalarning matnni tahliliy idrok etish imkoniyatlarini kengaytirish yetakchi vazifalardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Shu bilan birga, filologik ta’limda maqollarning madaniy-konnotativ xususiyatlarini badiiy matnlar asosida o‘zlashtirishga qaratilgan metodik tizimning yetarlicha integratsiyalashmaganligi ustuvor muammo sifatida qayd etilmoqda. Mazkur kamchiliklarni bartaraf etish uchun badiiy adabiyot matnlari negizida paremiologik materiallarni bosqichma-bosqich o‘rgatishning samarali didaktik modelini takomillashtirish zarurati yuzaga kelmoqda. Kelgusida filolog talabalarga ingliz maqollarini badiiy asarlar asosida o‘rgatish metodikasini takomillashtirish bo‘yicha kompleks ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish dolzarb hisoblanadi.

Mamlakatimizda filologik ta’limni modernizatsiya qilish, xorijiy tillarni o‘qitish metodikalarini takomillashtirish hamda talabalarning lingvomadaniy kompetentligini rivojlantirish jarayoni davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylanmoqda. Ayniqsa, ingliz tilini o‘qitishda maqollar kabi milliy-madaniy mazmunga ega birliklardan samarali foydalanish zarurati ortib bormoqda. Biroq amaliyotda ularni o‘qitish ko‘pincha kontekstdan uzilgan holda amalga oshirilmoqda, bu esa talabalarning ularni nutq jarayonida qo‘llash imkoniyatlarini cheklaydi. Shu bois, ingliz maqollarini badiiy asarlar asosida o‘qitish metodikasini takomillashtirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Zero, “chet tillarini o‘rganish – bugungi zamon talabi. Raqobatdosh davlat barpo etmoqchi bo‘lsak,

bitiruvchilar kamida ikki chet tilini mukammal bilishi shart”[1], degan fikrlar ta’lim jarayonida zamonaviy yondashuvlarni joriy etish zaruratini yanada kuchaytirmoqda. Ushbu yondashuv talabalarda kontekstual tafakkur va kommunikativ faollikni rivojlantirishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2020-yil 29-oktyabrdagi PF-6097-son “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2026-yil 10-apreldagi PF-58-son “Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar tizimini takomillashtirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2026-yil 26-maydagi PF-98-son “Yangi avlod ilmiy kadrlarini tayyorlash va ularni attestatsiya qilish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida” Farmonlari, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2016-yil 24-maydagi 174-son “Oliy ta’lim tizimi uchun xorijiy o‘quv va ilmiy adabiyotlar xarid qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2017-yil 11-avgustdagi 610-son “Ta’lim muassasalarida chet tillarini o‘qitishning sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018-yil 10-oktyabrdagi 816-son “Oliy ta’lim muassasalarini o‘quv adabiyotlari bilan ta’minlash to‘g‘risida” Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I.“Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda, innovatsion g‘oyalar tizimini rivojlantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Mamlakatimizda xorijiy tilni o‘qitish masalalari G.X.Bakiyeva, M.Djusupov, T.K.Sattarov, D.U.Xoshimova, J.J.Jalolov, L.T.Axmedova, F.M.Rashidova, G.T.Maxkamova, B.G.Qulmatov, M.A.Nazarova, I.M.Tuxtasinov, M.X.Gulyamova, K.Sh.Muradkasimova, A.B.Raxmonov kabi olimlarning ilmiy tadqiqotlarida tahlil qilingan[2]. Maqollarni ilmiy jihatdan tadqiq

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2021-yil 6-maydagi “Chet tillarini o‘qitish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari” yuzasidan o‘tkazilgan videoselektordagi nutqi. https://www.president.uz/oz/lists/view/4327 [Murojaat sanasi: 13.01.2026].

[2] Бакиева Г.Х. Преодоление звуковой интерференции при обучении русскому произношению студентов-узбеков (на материале консанантизма): Автореф. дис. ... канд. пед. наук. – Тошкент, 1987. – 21 с.; Джусупов М. Звуковые системы русского и казахского языков. Слог. Интерференция. Обучение произношению. – Ташкент: Фан, 1991. – 239 с.; Саттаров Т.К. Формирование профессиональных умений будущего учителя иностранного языка на практических занятиях по специальности (на материале английского языка): Автореф.

etish yuzasidan K.E.Alibekova, N.B.Saparova, P.J.Nazarov, P.U.Bakirov, R.U.Madjidova, F.S.Azizova, A.A.Nasirov, D.A.Tosheva, D.S.Turdaliyeva, M.A.Temirova, N.K.Abbosova, Sh.Sh.Qalandarov, B.M.Jo‘rayeva, O.P.Uralova, D.I.Mirzayeva, G.X.Ro‘ziyeva, Sh.M.Boyxanov, G.Y.Eshonkulova kabi olimlar izlanishlar olib borgan[3]. Badiiy asarlar asosida chet tilini o‘qitish masalalari esa L.T.Axmedova, U.Sattarov, D.X.Xodjayev, X.B.Tursunov tadqiqotlarida o‘z ifodasini topgan[4].

дис. ... д-ра пед. наук. – Ташкент, 2000. – 32 с.; Хошимова Д.У. Лингводидактические основы изучения лакун в контексте современного функционирования русского языка и межъязыковых взаимодействий: Дис. ... докт. пед. наук. – Ташкент, 2007. – 209 с.; Jalolov J.J. Chet til o‘qitish metodikasi. – Toshkent: “O‘qituvchi” nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012. – 430 b.; Ахмедова Л.Т. Теория и практика обучения профессиональной русской речи студентов-филологов. – Т.: Фан ва технология, 2013. – 200 с.; Рашидова Ф.М. Совершенствование концептуально-методических основ внедрения в систему непрерывного образования Узбекистана (на примере английского языка): Дис. ... докт. пед. наук. – Ташкент, 2017. – 309 с.; Maxkamova G.T., Alimov Sh.S., Ziyayev A.I. Innovative pedagogical technologies in the English language teaching. – Tashkent: Fan va texnologiya, 2017. – 232 b.; Qulmatov B. Ingliz tilini innovatsion texnologiyalar yordamida o‘qitishda CEFR mezonlaridan foydalanishning nazariy asoslarini takomillashtirish: Falsafa doktori diss. avtoreferati. – Toshkent, 2018. – 32 b.; Nazarova M. Ingliz tilidagi matnlarni o‘qishda leksik polisemiyaga o‘rgatishni takomillashtirish: Falsafa doktori diss. avtoreferati. – Toshkent, 2018. – 31 b.; Тухтасинов И.М. Таржимон тайёрлашда касбий компетенцияларни эквивалентлик ҳодисаси асосида ривожлантириш: Автореф. дис. ... пед. фан. докт. – Т., 2018. – 65 б.; Gulyamova X.M. Ingliz tilini o‘qitishda talabalar kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga integrativ yondashuv: Ped. fan. nom. ... dis. – Toshkent: O‘zDJTU, 2019. – 262 b.; Muradkasimova K.Sh. Ingliz tilini o‘qitishda talabalarning ko‘nikma va malakalarini baholash xususiyatlari: Ped. fan. nom. ... dis. – Toshkent: O‘zDJTU, 2019. – 174 b.; Рахмонов А.Б. Формирование профессиональной компетенции будущих учителей русского языка в самообразовательной деятельности: Автореф. дис. ... док. пед. наук. – Ташкент, 2022. – 82 с.

[3] Алибекова К.Е. Обучение тюркоязычных студентов медицинской лексике и пословицам русского языка с базовыми концептами «Здоровье», «Гигиена»: Дис. ... канд. пед. наук. – Ташкент, 1993. – 177 с.; Сапарова Н.Б. Лингводидактические основы обучения студентов-казахов номинацентрическим пословицам русского языка: Автореф. дис. ... канд. пед. наук. – Ташкент, 2001. – 168 с.; Назаров П.Ж. Бакалаврлар тайёрлашнинг қуйи босқичида немис тилини коммуникатив методикаси асосида ўқитишда мақоллардан фойдаланиш: Автореф. дис. ... пед. фан. докт. – Т., 2004. – 23 б.; Бакиров П.У. Миллий ғоя тарғиботида ўзбек халқ мақолларидан фойдаланиш. – Тошкент: Маънавият, 2007. – 48 б.; Маджидова Р.У. Антропоцентрические пословицы: семантика и лингвостатистика (на материале узбекского и русского языков): Дис. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 2008. – 150 с.; Азизова Ф.С. Методика обучения переводу английских фразеологических единиц на узбекский язык. Вестник Университета Российской академии, 2010. – С. 74-76; Насиров А.А. Француз, ўзбек ва рус тилларидаги провербиал фразеологизмларнинг семантик-стилистик ва миллий-маданий хусусиятлари: Автореф. дис. ... фил. фан. док. – Тошкент, 2016. – 91 б.; Тошева Д.А. Зооним компонентли мақолларнинг лингвокултурологик хусусиятлари: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дис. – Т., 2017. – 134 б.; Турдалиева Д.С. Ўзбек халқ мақолларининг лингвопоэтик хусусиятлари: Филол. фанлари фалсафа д-ри ... дис. – Фарғона, 2018. – 144 б.; Темирова М. Ўзбек ва қирғиз халқ мақоллари типологияси: Филол. фанлари фалсафа д-ри ... дис. – Тошкент, 2018. – 166 б.; Аббасова Н.К. Умумий ўрта таълим мактаб ўқувчиларига инглиз тили мақол ва маталларини ўқитиш методикаси: Автореф. дис. ... пед. фан. докт. – Т., 2019. – 56 б.; Қаландаров Ш.Ш. Ўзбек лингвомаданий муҳитида халқ мақоллари эвфимизацияси: Автореф. дис. ... пед. фан. докт. – Т., 2019. – 44 б.; Жўраева Б.М. Ўзбек халқ мақоллари шаклланишининг лингвистик асослари ва прагматик хусусиятлари: Фил. фан. доктори (DSc) дис. – Самарқанд, 2019. – 237 б.; Уралова О.П. Инглиз ва ўзбек тилларида «оила» бош лексемали мақоллар семантикаси ва структураси: Автореф. дис. ... фил. фан. докт. – Т., 2021. – 50 б.; Мирзаева Д.И. Ўзбек-инглиз тилларидаги мақол ва маталларнинг лингвокултурологик ҳамда прагматик тадқиқи: Автореф. дис. ... фил. фан. докт. – Ташкент, 2022. – 56 б.; Ro‘ziyeva G.X. Filolog talabalarda lingvistik kompetensiyani shakllantirish (ingliz tili idiomalari asosida). – Toshkent, 2022. – 54 b.; Boyxanov Sh.M. Ingliz tili amaliy kursida talabalarning paremiologik kompetensiyasini rivojlantirish: Avtoref. dis. ... ped. fan. dok. – T., 2023. – 45 b.; Eshonkulova G.Y. Filologik yo‘nalishdagi talabalarga ingliz tili antropotsentrik maqollarini o‘rgatishning lingvodidaktik asoslari: Filol. fanlari bo‘yicha falsafa d-ri ... dis. – Toshkent, 2025. – 207 b.

[4] Ахмедова Л.Т. Система упражнений по обучению профессиональной русской речи студентов-филологов на материале художественных текстов. O‘zbekistonda xorijiy tillar. – № 6 (47), 2022. – B. 83-99.; Саттаров У. Теория методики использования учебной и художественной литературы в преподавании иностранного языка. Зарубежная лингвистика и лингводидактика. 2, 5, 2024. – С. 54-58.; Xodjayev D.X. Badiiy adabiyotlarni chet tillarni o‘rganishda ahamiyati. Namangan davlat pedagogika instituti “Ta’lim va taraqqiyot” ilmiy-uslubiy jurnali, № 5, 2025. – B. 125-135; Tursunov X. Badiiy matnning estetik funksiyasi va uning chet tili o‘qitishdagi o‘rni. Advances in Science and Education, 2(01), 2026. – P. 47-52.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH) mamlakatlarida chet tilini o‘qitish va uning didaktik xususiyatlari Y.M.Vereshchagin, V.G.Kostomarov, Y.I.Passov, V.V.Vorobyev, G.V.Kolshanskiy, V.P.Ostrogorskiy kabi olimlar tomonidan o‘rganilgan[5]. Maqollarning lingvistik, frazeologik va paremiologik xususiyatlarini tadqiq etishga V.V.Vinogradov, G.L.Permyakov, V.I.Dal, A.V.Kunin, Ye.V.Ivanova kabi olimlarning ishlari bag‘ishlangan[6]. Badiiy asarlar asosida chet tilini o‘qitish masalalari N.N.Volodina, O.N.Netrebskaya, A.A.Gilmanova, S.Ye.Nikitina, E.R.Daminova tadqiqotlarida yoritilgan[7].

Xorijiy olimlardan M.Vest, S.Strayker, B.Liver, I.Lazar, J.Littlmor, G.Lou chet tilini o‘qitishning nazariy-metodik asoslarini ishlab chiqqan[8]. Maqollarning semantik, madaniy va lingvodidaktik xususiyatlari A.Teylor, A.Dandes, N.R.Norrik, E.B.Richmond, G.Lakoff, P.Seytel, V.Mider, G.Milner, R.Petrova, P.Gjibek, S.Fidler kabi olimlarning ilmiy izlanishlarida tadqiq etilgan[9]. Badiiy asarlar asosida chet tilini o‘qitish muammosi esa L.Alvares, Mey-Ling Chen, E.Tezjan, Sh.Rajvenshi, V.Kumar tomonidan o‘rganilgan[10]. Biroq mazkur

[5] Верещагин Е.М., Костомаров В.Г. Язык и культура. – М.: Русский язык, 1990. – 246 с.; Пассов Е.И. Коммуникативный метод обучения иноязычному говорению. 2-е издание. – М.: Просвещение, 1991. – 223 с.; Воробьев В.В. Лингвокультурология. Теория и методы: Монография. – М.: Изд-во РУДН, 1997. – 331 с.; Колшанский Г.В. Коммуникативная функция и структура языка. 3-е изд. – Москва: Издательство ЛКИ, 2007. – 176 с.; Острогорский В.П. Выразительное чтение. – Москва: Издательство Юрайт, 2024. – 128 с.

[6] Виноградов В.В. Лингвистические аспекты обучения. – Москва: Издательство МГУ, 1972. – 57 с.; Пермяков Г.Л. Основы структурной паремиологии. – М.: Наука, 1988. – 236 с.; Даль В.И. Пословицы русского народа. В 2-х тт. Том 1. – Москва: Художественная литература, 1989. – 433 с.; Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка. – Дубна: Феникс, 2005. – 488 с.; Ivanova E.V. The World in the English and Russian Proverbs: textbook. – SPb.: Publishing House of Saint-Petersburg University, 2006. – 280 p.

[7] Володина Н.Н. Интерпретация художественного текста как средство совершенствования иноязычной речи на старших курсах языкового вуза: Автореф. дис. ... канд. пед. наук. – Санкт-Петербург, 2002. – 24 с.; Нетребская О.Н. Роль художественной литературы в изучении иностранного языка. Школьная библиотека – интеллект центр – территория формирования мировоззрения, культуры грамотности учащихся и приобщения к чтению в книжной и мультимедийной среде. – Москва: Пушкинский ин-т, 2015. – С. 154-156; Гильманова А.А., Никитина С.Е., Даминова Э.Р. Использование художественных текстов для обучения чтению на иностранном языке. Международный научно-исследовательский журнал, № 4 (46), Часть 3, 2016. – С. 24-27.

[8] West M. Teaching English in Difficult Circumstances. – London: Longmans, Green, 1960. – 136 p.; Stryker S., Leaver B. Content-Based Instruction in Foreign Language Education. – Washington, DC: Georgetown University Press, 1997. – 320 p.; Lazar I. Incorporating intercultural communicative competence in language teacher education. – Kapfenberg: Council of Europe Publishing, 2003. – 107 p.; Littlemore J., Low G. Figurative thinking and foreign language learning. – New York: Palgrave Macmillan, 2006. – 301 p.

[9] Taylor A. The proverb. – Cambridge, Mass: Harvard University Press, 1931. – 223 p.; Dundes A. On the structure of the proverb. Proverbium, 25, 1975. – P. 961-973; Norrick N.R. How Proverbs Mean: Semantic Studies in English Proverbs. – Berlin: Mouton Publishers, 1985. – 213 p.; Richmond E.B. Utilizing proverbs as a focal point to cultural awareness and communicative competence: Illustrations from Africa. Foreign Language Annals, 20(3), 1987. – P. 213-216.; Lakoff G., Turner M. More Than Cool Reason: A Field Guide to Poetic Metaphor. – Chicago: University of Chicago Press, 1989. – 230 p.; Seitel P. Proverbs: A social use of metaphor. Dans W. Mieder, A. Dundes, The wisdom of many: Essays on the proverb. – Madison: The University of Wisconsin Press, 1994. – P. 122-139; Mieder W. Proverbs: A Handbook. – Westport: Greenwood Press, 2004. – 304 p.; Milner G. The Quartered Shield: Outline of a semantic taxonomy. – London: Routledge, 2004. – P. 243-269; Petrova R. Лингвокултурологично съпоставително изследване на английски и български пословици: Дисертация. – София, 2006. – 267 с.; Grzybek P. Semiotic and Semantic Aspects of the Proverb. Introduction to Paremiology: A Comprehensive Guide to Proverb Studies. – Warsaw-Berlin: De Gruyter Open, 2014. – P. 68-111; Fiedler S. Proverbs and foreign language teaching. Introduction to Paremiology: A Comprehensive Guide to Proverb Studies. – Berlin: De Gruyter Open, 2015. – P. 101-118.

[10] Alvarez L. The Role of Literature in the Teaching of Foreign Languages. Convention Issue, Volume 22, Number 2, 1998. – P. 23-39.; Mei-Ling Chen. Teaching English as a Foreign Language through Literature. Theory and Practice in Language Studies, Vol. 4, No. 2, 2014. – P. 232-236.; Tezcan E. Teaching English as a Foreign Language through Literature. International Journal of Media, Culture and Literature, Volume 7, Issue 2, 2021. – P. 189-200.; Rajvenshi Sh. Teaching language through literature. Futuristic Trends in Social Sciences, IIP Proceedings, Volume 2, Book 2,

tadqiqotlarda filolog talabalarga ingliz maqollarini badiiy asarlar asosida o‘rgatish metodikasini takomillashtirish masalasi maxsus tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining “Doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar va talabalar o‘rtasida olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot, ilmiy-ijodiy ishlar” bandi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi filolog talabalarga ingliz maqollarini badiiy asarlar asosida o‘rgatish metodikasini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

filolog talabalarga ingliz maqollarini o‘rgatishning nazariy asoslarini aniqlash hamda ularning lingvistik, lingvomadaniy va pragmatik xususiyatlarini ilmiy jihatdan tahlil qilish;

badiiy matn asosida ingliz maqollarini o‘rgatishdagi qiyinchiliklarni yengishning 3D kub didaktik konstruksiyani ishlab chiqish;

zamonaviy yondashuv, texnologiya, metod va texnikalarni ta’limga integratsiya qilish orqali badiiy matn asosida maqollarni o‘rgatishga yo‘naltirilgan mashqlar hamda topshiriqlar tizimini takomillashtirish;

ingliz maqollarini badiiy asarlar asosida o‘rgatishga mo‘ljallangan metodik modelni ishlab chiqish, taklif etilgan metodik tizimning samaradorligini tajriba-sinov orqali aniqlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida filolog talabalariga ingliz maqollarini badiiy asarlar asosida o‘rgatish metodikasini takomillashtirish jarayoni olingan.

Tadqiqotning predmetini filolog talabalarga ingliz maqollarini badiiy asarlar asosida o‘rgatish metodikasini takomillashtirish mazmuni, metodlari va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda nazariy metodlar (tahliliy-sintetik, qiyosiy); diagnostik metodlar (so‘rov, kuzatish, test); prognostik metodlar (ekspert baholash, mustaqil baholarni umumlashtirish); pedagogik eksperiment metodlari; matematik statistik metod (natijalarni statistik qayta ishlash) usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

filolog talabalarga ingliz maqollarini badiiy asarlar asosida o‘rgatishda lingvistik, lingvomadaniy va pragmatik ta’sir integratsiyasiga asoslangan metodik tizimning imkoniyatlari paremiologik kompetentlikning kommunikativ-pragmatik komponentini kontekstual va diskursiv faoliyat asosida qo‘llash orqali maqollarni anglash va nutqda qo‘llashga ko‘ra aniqlangan;

badiiy matn asosida maqollarni o‘rgatishdagi qiyinchiliklarni yengishning 3D kub didaktik konstruksiyasi subyektiv–kognitiv, metodik–didaktik hamda texnologik–resurs omillarni A-daraja (yuzaki semantik), B-daraja (madaniy-interpretativ) va C-daraja (argumentativ-pragmatik) asosida kognitiv darajalar

Chapter 28, 2022. – P. 269-273.; Kumar V. Literature as a pedagogical tool for English language teaching. Special Issue, 2024. – P. 65-69.

bo‘yicha differensiallash hamda didaktik jihatdan qayta qurish orqali ishlab chiqilgan;

ingliz maqollarini badiiy asarlar asosida o‘rgatishda *kontekstual–diskursiv yondashuv, muammoli-izlanishga yo‘naltirilgan ta’lim* hamda *argumentativ vizuallashtirish texnikalari*ning integrativ qo‘llanishi natijasida maqollarning badiiy matndagi funksional-semantik yuklamasini aniqlash, ularni kontekst asosida talqin qilishning konvergent interpretatsiya algoritmi dalillangan;

badiiy matn asosida ingliz maqollarini o‘rgatishda kognitiv–identifikatsion, interpretativ–stilistik va kommunikativ–lingvomadaniy mashqlar tizimiga asoslangan transversal metodik model komponentlarni diagnostika asosida aniqlash, darajali-struktural modellashtirish va integrativ–konstruktiv transformatsiya qilish orqali ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

filolog talabalar uchun ingliz maqollarini badiiy asarlar asosida o'rgatishga yo'naltirilgan, kognitiv–interpretativ va kommunikativ yondashuvlar integratsiyasiga asoslangan metodik model takomillashtirildi;

ingliz maqollarining semantik, stilistik va pragmatik xususiyatlarini badiiy kontekstda o'zlashtirishga xizmat qiluvchi mashqlar tizimi ishlab chiqildi hamda lingvomadaniy kompetentlikni baholash mezonlari va metodik ta'minot yaratildi;

filolog talabalarning paremiologik kompetentligini bosqichma-bosqich aniqlashga xizmat qiluvchi testlar banki ishlab chiqildi, uning tarkibiga maqollarni tanish, badiiy matn kontekstida ma'nosini izohlash, muqobil variantini topish va nutqiy vaziyatda qo'llash ko'nikmalarini o'lchovchi topshiriqlar kiritildi;

ingliz badiiy asarlaridan maqollarni saralash mezonlari asosida o'quv-metodik korpus shakllantirilib, unda har bir maqolning manba matnidagi konteksti, lingvomadaniy sharhi va o'zbek tilidagi muqobil variantlari aks ettirildi hamda uning filologiya yo'nalishi talabalariga ingliz maqollarini o'rgatish jarayonida qo'llanish imkoniyatlari asoslab berildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotda qo‘llangan kognitiv–interpretativ va kommunikativ yondashuvlarning nazariy asoslari, filolog talabalarga ingliz maqollarini badiiy asarlar asosida o‘rgatishga oid DTS, malaka talablari, o‘quv dasturlari va ishchi dasturlar puxta o‘rganildi, ishlab chiqilgan mashqlar tizimi, metodik ko‘rsatmalar hamda baholash mezonlari tajriba-sinov jarayonida amaliyotga tatbiq etildi, olingan natijalar matematik-statistik tahlil asosida tasdiqlandi, ularning samaradorligi ekspertlar tomonidan baholanib, ilmiy asoslanganligi bilan ishonchliligi ta’minlandi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundaki, kognitiv–interpretativ va kommunikativ yondashuvlar asosida filolog talabalarga ingliz maqollarini badiiy asarlar negizida o‘rgatishga doir konseptual qarashlar hamda ularning semantik, stilistik va pragmatik xususiyatlarini integrativ o‘zlashtirish mexanizmlari ilmiy jihatdan asoslab berildi. Olingan ilmiy natijalar maqollarni badiiy kontekstda talqin qilish jarayonida yuzaga keladigan tizimli qiyinchiliklarni izohlash va ularni bartaraf etishning metodik yechimlarini aniqlash imkonini yaratadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati ta’lim muassasalarida darslik, o‘quv qo‘llanma, o‘quv dasturlarini ishlab, baholash mezonlari va metodik tavsiyalardan dan foydalanishi mumkinligi bilan chiqishda mashqlar tizimi belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Filolog talabalarga ingliz maqollarini badiiy asarlar asosida o‘rgatish metodikasini takomillashtirish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

filolog talabalarga ingliz maqollarini badiiy asarlar asosida o‘rgatishda lingvistik, lingvomadaniy va pragmatik yondashuvlar integratsiyasiga asoslangan metodik tizimning imkoniyatlari paremiologik kompetentlikning kommunikativ-pragmatik komponentini kontekstual va diskursiv faoliyat asosida qo‘llash orqali maqollarni anglash va nutqda qo‘llashga ko‘ra aniqlanganligiga oid ilmiy xulosalaridan O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetida davlat ilmiy-texnika dasturlari doirasida 2023-2025-yillarda bajarilgan IL-27-4722022413-sonli “Qiyosiy adabiyotshunoslik” fanining “Komparativistika” elektron platformasini yaratish mavzusidagi innovatsion loyihasi doirasida foydalanildi (O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetining 2026-yil 1-iyuldagi №11-25/571-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, loyiha doirasida platformaning nazariy-uslubiy asoslari boyitildi hamda maqollarning matndagi kommunikativ-pragmatik vazifalarini ochib beruvchi mashqlar tizimi yaratildi.

ingliz maqollarini badiiy asarlar asosida o‘rgatishda kontekstual–diskursiv yondashuv, muammoli-izlanishga yo‘naltirilgan ta’lim hamda argumentativ vizuallashtirish texnikalarining integrativ qo‘llanishi natijasida maqollarning badiiy matndagi funksional-semantik yuklamasini aniqlash, ularni kontekst asosida talqin qilishning konvergent interpretatsiya algoritmi dalillanganligiga doir ilmiy yangiligidan “Erasmus+ International KA107 Credit Mobility Key Action 1 – Mobility for Learners and Staff – Higher Education Student and Staff Mobility” loyihasi doirasida, Ca’ Foscari universiteti, Italiya bilan 2022–2025-yillarda amalga oshirilgan xalqaro loyihada foydalanildi. (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2026-yil 25-maydagi №4/4-2550-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, loyiha doirasida badiiy matnlar orqali ingliz maqollarini o‘rgatishda talabalar va professor-o‘qituvchilarning madaniyatlararo muloqot, kontekstual tahlil, diskursiv talqin hamda argumentli fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi metodik yondashuvlar mazmunan boyitildi;

badiiy matn asosida ingliz maqollarini o‘rgatishda kognitiv–identifikatsion, interpretativ–stilistik va kommunikativ–lingvomadaniy mashqlar tizimiga asoslangan transversal metodik model komponentlarni diagnostika asosida aniqlash, darajali-struktural modellashtirish va integrativ–konstruktiv transformatsiya qilish orqali ishlab chiqilganligiga doir ilmiy xulosalaridan Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti Qoraqalpog‘iston filialida bajarilgan Ф3-2016-09081165532 raqamli “Qoraqalpoq tilining yangi alifvati va imlo qoidalariga muvofiq ona tili va adabiyotini rivojlantirish metodikasi” mavzusidagi fundamental loyihada foydalanildi (Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti Qoraqalpog‘iston filialining 2025-yil 19-yanvardagi №16-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, fundamental loyiha doirasida qoraqalpoq tili va adabiyotini o'qitishda

badiiy matndan foydalanishning kognitiv-identifikatsion va interpretativ-stilistik mashqlarga asoslangan metodikasi nazariy jihatdan asoslandi;

filolog talabalarga ingliz maqollarini badiiy asarlar asosida o‘rgatishda kognitiv-identifikatsion, interpretativ-stilistik va kommunikativ-lingvomadaniy mashqlar tizimiga asoslangan transversal metodik modelni ishlab chiqish, shuningdek, ingliz va o‘zbek maqollarining leksik, morfologik, semantik hamda lingvomadaniy xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilish, ularni badiiy matn kontekstida izohlash va ta’lim jarayoniga integratsiya qilishga oid ilmiy xulosalaridan 2022–2024-yillarda bajarilgan IL-402104209-sonli “Axborot-qidiruv tizimlari (Google, Yandex, Google Translate) uchun avtomatik ishlov berish vositasi – o‘zbek tilining morfoleksikoni va morfologik analizatori dasturiy vositasini yaratish” innovatsion loyihasi doirasida foydalanildi. (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, 2026 yil 11 iyul, №01/4–3307-son ma’lumotnomasi). Natijada, ingliz va o‘zbek maqollarini morfoleksikonda tizimlashtirish, paremiologik birliklarning morfologik, semantik va kontekstual xususiyatlarini avtomatik aniqlash va tasniflash, badiiy matnlardan maqollarni ajratib olish hamda maqollar korpusini shakllantirishning ilmiy-metodik asoslari takomillashtirildi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 10 ta ilmiy ish, shu jumladan O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining PhD dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, shundan 3 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya ishi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat bo‘lib, umumiy hajmi 158 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o‘rganilganlik darajasi yoritilgan, ishning maqsad va vazifalari, tadqiqot obyekti va predmeti aniqlangan, tadqiqot usullari, dissertatsiyaning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati asoslab berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, e’lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo‘yicha ma’lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **“Filolog talabalarga ingliz maqollarini badiiy asarlar asosida o‘rgatishning nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida xorijiy tilni o‘rgatishda ingliz maqollaridan foydalanishning o‘ziga xos xususiyatlari, o‘qitish bosqichlari, tamoyillari hamda zamonaviy yondashuvlar o‘rganilgan.

Xorijiy tilni o‘qitish zamonaviy ta’lim tizimida nafaqat grammatik bilimlarni egallash, balki o‘rganilayotgan tilning madaniy, kommunikativ hamda pragmatik jihatlarini o‘zlashtirishni ham nazarda tutadi. Mazkur jarayonda maqollar samarali

lingvodidaktik vosita sifatida ajralib turadi, chunki ular xalqning tarixiy tajribasi, dunyoqarashi va madaniy qadriyatlarini mujassamlashtirgan holda tilning semantik va pragmatik imkoniyatlarini aks ettiradi.

Ilmiy manbalarda, xususan, ingliz va rus tilidagi izohli lug‘atlarda “maqol umumiy haqiqat yoki maslahatni ifodalovchi qisqa, mashhur ibora hisoblanadi”[11], deb ta’riflanadi. Mazkur ta’riflarni umumlashtirgan holda, biz quyidagi mualliflik ta’rifini ilgari suramiz: *“maqol xalqning tarixiy tajribasi va madaniy qadriyatlarini aks ettiruvchi, qisqa va lo‘nda shaklda ifodalangan, semantik jihatdan yaxlit, grammatik jihatdan mustaqil hamda obrazli xarakterga ega barqaror nutq birligi hisoblanadi”*. Ushbu yondashuv maqollarning lingvistik, pragmatik va lingvomadaniy xususiyatlarini integrativ tarzda qamrab oladi.

O‘zbek tilshunosligida ham maqollarning lingvistik va metodik ahamiyati keng yoritilgan. Sh.Rahmatullayev maqollarni xalq tafakkurining mahsuli bo‘lgan obrazli va barqaror birlik sifatida talqin etsa, B.Yo‘ldoshev ularni xalqning tarixiy tajribasi va ma’naviy qadriyatlarini aks ettiruvchi lingvomadaniy fenomen sifatida baholaydi.

Shuningdek, G.Ro‘ziyeva “xorijiy tilni o‘qitishda barqaror til birliklarini, xususan maqollarni kontekst asosida o‘rgatish muhim metodik ahamiyatga ega”[12], deb ta’kidlaydi va ularni semantik hamda kommunikativ jihatdan tahlil qilish zarurligini qayd etadi.

Yuqoridagi ilmiy qarashlar shuni ko‘rsatadiki, maqollar til tizimida ko‘p qatlamli lingvistik birlik sifatida namoyon bo‘ladi. Ular frazeologik jihatdan barqaror, sintaktik jihatdan mustaqil, semantik jihatdan umumlashgan hamda pragmatik jihatdan kommunikativ vazifani bajaruvchi birliklar sifatida qaraladi.

Shuningdek, maqollarni o‘rgatish jarayoni bosqichma-bosqich tashkil etilishi lozim. Metodist olimlar tomonidan taklif etilgan yondashuvlarga tayangan holda, *“maqollarni kontekstda taqdim etish, ularning ma’nosini anglash va nutqda qo‘llash bosqichlari o‘qitish jarayonining asosini tashkil etadi”*, degan xulosa chiqarish mumkin. Shu asosda tadqiqotimiz doirasida ingliz maqollarini badiiy matnlar asosida o‘rgatish uchun quyidagi metodik bosqichlar taklif etildi: *kontekstual taqdim etish, semantik tahlil, lingvomadaniy tahlil, mustahkamlash* hamda *kommunikativ qo‘llash.*

Ingliz maqollarini o‘rgatish jarayoni filologik, psixologik va pedagogik omillarning integratsiyasi sifatida qaraladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, “maqol oddiy sintaktik birlik emas, balki mantiqiy tugallangan fikr, obrazlilik va emotsional bo‘yoqni mujassam etgan mikromatn hisoblanadi”, shu bois uni faqat alohida birlik sifatida emas, balki kontekstda o‘rganish zarur.

Maqollarni o‘rgatish metodikasida uch asosiy yondashuv ajratiladi. Lingvomadaniy yondashuv doirasida A.Zunnunov “maqollarni badiiy matnlar tarkibida, milliy-tarixiy kontekst bilan bog‘liq holda o‘qitish samarali bo‘lib, maqol xalqning madaniy-axloqiy tajribasini ifodalovchi matn komponentidir”, deya qayd etadi. Funksional-semantik yondashuv doirasida S.Matchonov “maqollarni

---

[11] Oxford Learner’s Dictionaries. Proverb. – Available at: https://www.oxfordlearnersdictionaries.com [Murojaat etilgan sana: 12.01.2026].

[12] Ro‘ziyeva G.X. Filolog talabalarda lingvistik kompetensiyani shakllantirish (ingliz tili idiomalari asosida). – Toshkent, 2022. – B. 17.

mavzular asosida tizimlashtirish ularni o‘rganishni osonlashtiradi”, deb hisoblaydi, Kommunikativ yondashuvda esa N.Mahmudov “maqollarni nutqiy vaziyat asosida o‘rgatish zarur, chunki talaba ularni muloqot jarayonida qo‘llashni o‘rganishi kerak”, deb qayd etadi. Mazkur yondashuvlarni umumlashtirgan holda, quyidagi mualliflik fikrini ilgari surish mumkin: *“maqollarni o‘rgatishda vaziyat–matn–muloqot zanjiri asosida integrativ yondashuvdan foydalanish talabaning lingvistik va lingvomadaniy kompetensiyasini parallel ravishda rivojlantiradi”*. Ushbu yondashuv maqolni yodlanadigan birlikdan faol nutqiy vositaga aylantirishga xizmat qiladi.

Badiiy matnlar asosida maqollarni o‘rgatish xorijiy til ta’limida alohida o‘rin tutadi. J.Kolli va S.Slater “badiiy matnlar talabalarning tilga qiziqishini oshiradi va ularning lug‘aviy boyligini kengaytiradi”, deb ta’kidlaydilar. R.Karter va M.Long esa “badiiy matnlar til modeli, madaniy model va shaxsiy rivojlanish modeli asosida o‘rganilishi mumkin”, deya ularning ko‘p qirrali didaktik ahamiyatini ko‘rsatadi.

Shuningdek, N.D.Galskova “badiiy matnlar talabalarda yashirin mazmunni anglash va madaniy realiyalarni tushunish ko‘nikmalarini shakllantiradi”, deb hisoblaydi. I.L.Bim esa “barqaror til birliklari, jumladan maqollar aynan kontekstda o‘rganilganda ularning ma’nosi to‘liq ochiladi”, deya asoslaydi.

Mazkur ilmiy qarashlarga tayangan holda, quyidagi mualliflik xulosasini berish mumkin: *“badiiy matn maqollarni o‘qitishda nafaqat lingvistik, balki pragmatik va lingvomadaniy mazmunni ochib beruvchi jonli lingvodidaktik muhit hisoblanadi”.*

Bizningcha, “badiiy asarlarni tanlashda maqollarning organik qo‘llanilishi, madaniy reprezentativlik, til darajasiga moslik va didaktik qiymat asosiy mezonlar sifatida xizmat qiladi”.

Maqollarni badiiy matn asosida o‘rgatish jarayoni bosqichma-bosqich tashkil etilishi zarur. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, *pre-reading (matn oldi)* bosqichida maqol motivatsiya va bashorat vositasi sifatida xizmat qiladi, *while-reading (matn jarayoni (o‘qish))* bosqichida uning kontekstual va pragmatik ma’nosi ochiladi, *post-reading (matndan keying)* bosqichida esa u kommunikativ faoliyatga o‘tkaziladi. Ushbu tizim maqollarni passiv bilimdan aktiv nutqiy vositaga aylantirish imkonini beradi.

Dissertatsiyaning **“Filolog talabalarga ingliz maqollarini badiiy asarlar asosida o‘rgatish metodikasi”** deb nomlangan ikkinchi bobda ingliz maqollarini badiiy asarlar asosida o‘qitishning amaldagi holati, me’yoriy hujjatlar, darsliklar tahlili, qiyinchiliklar tasnifi mashqlar tizimi yoritilgan.

Xorijiy tillarni o‘qitish jarayoni amaldagi me’yoriy-huquqiy hujjatlar asosida tashkil etilib, ularning mazmuni va yo‘nalishini belgilaydi. Shu nuqtayi nazardan, ingliz maqollarini badiiy asarlar asosida o‘qitish metodikasini takomillashtirish jarayoni mavjud normativ asoslar bilan uyg‘un holda ko‘rib chiqildi.

Navbatdagi tahlilga tortilgan hujjat bu Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti Kengashining 2024-yil 29-avgustdagi 1-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan “Badiiy o‘qish” fanining o‘quv dasturi hisoblanadi. Mazkur dastur badiiy matn asosida o‘qish, tahlil qilish va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan.

Dastur tarkibidagi George Bernard Shaw *“Pygmalion”*, Charles Dickens *“Bleak House”*, F. Scott Fitzgerald *“The Great Gatsby”*, Ian Fleming *“Doctor No”*, Elizabeth Gaskell *“North and South”* kabi asarlar maqollarni kontekstual va lingvomadaniy jihatdan o‘rganish uchun boy material manbai hisoblanadi.

Shu bilan birga, darslik va mashqlar tizimi tahlili ularning asosan reproduktiv va reseptiv xarakterga ega ekanligini ko‘rsatadi *(matching, multiple choice, gap filling va boshqalar)*. Mazkur mashqlar matnni tushunishga xizmat qilsa-da, maqollarni lingvomadaniy va kommunikativ birlik sifatida tizimli o‘rgatish mexanizmi yetarli darajada shakllantirilmagan.

Tahlil jarayonida o‘rganilgan Ch.Dikensning *“Bleak House”* asaridan misol keltirish orqali ingliz maqollarini badiiy matn asosida o‘qitishning samarali jihatlari *“Truth will come out in the end” (Haqiqat baribir yuzaga chiqadi)* ifodasi orqali asoslab berildi. Mazkur birlik dastlab matndan aniqlash *(proverb identification)*, so‘ng uning voqea kontekstidagi qo‘llanishini tahlil qilish *(contextual analysis)*, umumiy mazmunini talqin etish *(meaning interpretation)* hamda yangi kommunikativ vaziyatlarda qo‘llash *(situational application)* bosqichlari orqali o‘rgatildi.

Tadqiqot doirasida “Badiiy o‘qish” fani dasturiga kiritilgan asarlar matni to‘liq tahlil qilinib, ulardan ingliz maqollari va maqolga funksional jihatdan yaqin gnomik birliklar korpusi ajratib olindi. Jumladan, Ian Flemingning “Doctor No” asaridan 51 ta, F.Skott Fitzgeraldning “The Great Gatsby” asaridan 41 ta, Richard Chisholmning “Meet Me in Istanbul” asaridan 17 ta maqol aniqlandi hamda mustaqil ta’lim uchun tavsiya etilgan 18 ta asar tarkibidagi hikmatli so‘zlar va ularning mazmuniga muvofiq keluvchi maqollar ilovada tizimlashtirildi (1-jadvalga qarang):

1-jadval

Badiiy asarlardan ajratib olingan ingliz maqollari korpusi

Badiiy asar	Maqollar soni	Mavzuiy guruhlanishi
Ian Fleming. “Doctor No”	51	xavf, sinov, iroda, chidamlilik, kuch, hokimiyat, burch, o‘lim
F.Scott Fitzgerald. “The Great Gatsby”	41	orzu, boylik, ijtimoiy tabaqalanish, haqiqat va yolg‘on, kibr, mas’uliyat
Richard Chisholm. “Meet Me in Istanbul”	17	sabr, vaqt, ehtiyotkorlik, amaliy donolik, mas’uliyat

Mazkur korpus asosida o‘qitish jarayoniga *“Truth will come out in the end”, “Every man has his weaknesses”, “No man is perfect”, “Actions speak louder than words”, “A rolling stone gathers no moss”, “The early bird catches the worm”, “Do not judge a man until you have walked a mile in his shoes”, “Better late than never”, “Travel broadens the mind”, “When in Rome, do as the Romans do”, “Every journey begins with a single step”* kabi maqollar kiritildi.

Tadqiqotimiz davomida tahlillar hamda tajriba-sinov kuzatuvlari, auditoriya muhokamalari va yozma tahlil ishlari asosida badiiy matnlar asosida ingliz maqollarini o‘qitishdagi qiyinchiliklar tizimlashtirildi hamda uch asosiy omil doirasida tasniflandi: talaba omiliga bog‘liq (subyektiv–kognitiv), o‘qituvchi

omiliga bog‘liq (metodik–didaktik) hamda ta’lim vositalariga bog‘liq (texnologik–resurs) qiyinchiliklar (2-jadvalga qarang):

2-jadval

Badiiy matnlar asosida ingliz maqollarini o‘qitishda yuzaga keladigan qiyinchiliklarning metodik-didaktik tasnifi

Tur	Qiyinchiliklarning yo‘nalishlari
I. Talaba omiliga bog‘liq qiyinchiliklar (Subyektiv–kognitiv)	*Semantik qiyinchiliklar*
	Diskursiv–pragmatik qiyinchiliklar
	Madaniy–kognitiv qiyinchiliklar
	Ona tilining ta’siri asosida yuzaga kelgan qiyinchiliklar
	Interpretativ–analitik qiyinchiliklar
	Psixologik qiyinchiliklar
II. O‘qituvchi omiliga bog‘liq qiyinchiliklar (Metodik–didaktik)	*Metodik qiyinchiliklar*
	Lingvodidaktik qiyinchiliklar
	Kommunikativ-pragmatik qiyinchiliklar
III. Ta’lim vositalariga bog‘liq qiyinchiliklar (Texnologik–resurs)	*O‘quv materiallari bilan bog‘liq qiyinchiliklar*
	Didaktik ta’minot qiyinchiliklari
	Texnologik qiyinchiliklar

Ushbu tur qiyinchiliklarni yengish uchun esa ta’limda metodik tizimni kuchaytirish, maqollarni badiiy matn asosida o‘qitishga mos yondashuv, texnologiya, metod va texnikalarni integratsiya qilish lozim. Ushbu jihatni hisobga olgan holda, tahlillarimiz asosida badiiy matnlar doirasida maqollarni o‘qitishda ikki metodik yondashuv ustuvor deb belgilandi: *(1) Mavzuga asoslangan mazmuniy integratsiyalashgan yondashuv (Theme-Based Content-Based Instruction); (2) Matnga asoslangan integratsiyalashgan yondashuv (Text-Based Integrated Approach)* (1-rasmga qarang):



1-rasm. Mavzuga asoslangan mazmuniy integratsiyalashgan yondashuv bosqichlari

“Mavzuga asoslangan mazmuniy integratsiyalashgan yondashuv” (Theme-Based CBI) M.Brinton, D.Snou va M.Veshe tomonidan asoslangan ushbu yondashuvda til birliklari alohida emas, balki muayyan mavzu asosida integratsiyalashgan holda o‘rgatiladi hamda o‘qish, yozish, tinglash va gapirish ko‘nikmalari uzviy rivojlantiriladi. Mazkur ikki yondashuvning integratsiyasi badiiy

matn asosida maqollarni o‘qitishda yuqori metodik samaradorlikni ta’minlaydi, chunki ular til birliklarini kontekst, mazmun va diskurs bilan uzviy bog‘liq holda o‘zlashtirish imkonini yaratadi.

Ta’kidlash joizki, mazkur tadqiqot doirasida badiiy asar asosida ingliz maqollarini o‘qitish jarayonida talabalarda aniqlangan lingvosemantik, lingvomadaniy hamda interpretativ qiyinchiliklarni bartaraf etish maqsadida zamonaviy tanqidiy tafakkurga yo‘naltirilgan metodlardan foydalanildi. Xususan, o‘qitish jarayonida *Socratic Questioning (Maieutics) method* (Sokratik savol-javob (Maievtik) metodi), *Toulmin Method* (Tulmin metodi) va *Argument Mapping Method* (Argument xaritalash metodi) qo‘llanildi (2-rasmga qarang):



2-rasm. *Socratic Questioning (Maieutics)* metodi namunasi

Badiiy asar asosida ingliz maqollarini o‘qitish jarayonida tanlangan metodlarning samaradorligini oshirish maqsadida bir qator zamonaviy ta’lim texnikalarini kompleks tarzda qo‘llash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Xususan, biz taklif etgan metodlari bilan birgalikda *Close Reading, Think–Pair–Share, Concept Mapping, Role Reframing, Fishbone Analysis, Comparative Charting, Reflective Writing* kabi texnikalarni integratsiyalashgan holda qo‘llash o‘quv jarayonining kognitiv va diskursiv samaradorligini oshiradi.

Tadqiqot davomida yuqorida tahlilga tortgan qiyinchiliklar biz taklif etgan metodik tizimni integratsiyalagan 3D kub didaktik konstruksiya ishlab chiqildi (3-rasmga qarang).

“Badiiy matn asosida maqollarni o‘qitishdagi qiyinchiliklarni yengishning 3D kub didaktik konstruksiyasi” mazkur tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan integrativ metodik tizimni ifodalaydi. Uning nazariy asosi uch qatlamli mantiqqa tayangan. Birinchi qatlam – *diagnostik–analitik bosqich (1D)* bo‘lib, unda muammolar aniqlanadi va sabablar o‘rganiladi.



3-rasm. Badiiy matn asosida maqollarni o'qitishdagi qiyinchiliklarni yengishning 3D kub didaktik konstruksiyasi

Ikkinchi qatlam – *analitik–struktural bosqich (2D)* bo‘lib, qiyinchiliklar darajalarga ajratiladi: A-daraja – yuzaki semantik, B-daraja – madaniy–interpretativ, C-daraja – argumentativ–pragmatik. Uchinchi qatlam – *integrativ–konstruktiv bosqich (3D)* bo‘lib, metodik transformatsiya amalga oshiriladi. Mazkur bosqichda yondashuv, pedagogik texnologiya va zamonaviy metodlar integratsiyalanadi. Konstruksiyaning markazida badiiy matn konteksti joylashgan bo‘lib, barcha qiyinchiliklar va ularning yechimlari aynan shu kontekst doirasida ko‘rib chiqiladi.

Biz badiiy asarlar orqali ingliz maqollarini o‘qitishga mo‘ljallangan mashqlar tizimini metodik jihatdan M.Djusupov hamda Y.I.Passov tomonidan ishlab chiqilgan mashqlar tasniflariga asoslanib ishlab chiqdik.

